

SHUKRONALIK KONSEPTINING O‘ZBEK VA INGLIZ XALQ MAQOLLARIDA IFODALANISHI

G‘ulomova Umida Fozil qizi,

Termiz iqtisodiyot va servis universteti magistranti

Uralova Oysuluv Poyanovna,

Termiz iqtisodiyot va servis universteti Xorijiy tillar kafedra mudiri

PhD. Dots.

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.18605922>

Annotatsiya. Mazkur maqolada shukronalik konseptining o‘zbek va ingliz xalq maqollarida ifodalanish xususiyatlari lingvokulturologik va konseptual tahlil asosida o‘rganiladi. Shukronalik insoniyat tafakkurida axloqiy-ruhiy qadriyat, ijtimoiy munosabatlar mezonini va milliy mentalitetning muhim ko‘rsatkichi sifatida namoyon bo‘ladi. Xalq maqollari esa ushbu konseptning xalq ongidagi tarixiy, madaniy va falsafiy qatlamlarini aks ettiruvchi boy manba hisoblanadi. Tadqiqot jarayonida o‘zbek va ingliz tillaridagi shukronalik bilan bog‘liq maqollar semantik, pragmatik va stilistik jihatdan qiyosiy tahlil qilinadi. O‘zbek maqollarida shukronalik ko‘proq taqdirga tan berish, sabr-qanoat, ilohiy minnatdorlik bilan bog‘liq holda ifodalansa, ingliz maqollarida ushbu konsept shaxsiy mas‘uliyat, ijtimoiy minnatdorlik, hayotdan qoniqish va amaliy qadriyatlar bilan uzviy aloqada namoyon bo‘ladi. Maqolada shukronalik konseptining universal va milliy-spetsifik xususiyatlari aniqlanib, ikki xalq madaniyatida minnatdorlik tushunchasining o‘xshash va farqli jihatlari ochib beriladi. Tadqiqot natijalari kognitiv tilshunoslik, paremiologiya, madaniyatlararo kommunikatsiya sohalari uchun muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar: shukronalik, konsept, xalq maqollari, paremiologiya, lingvokulturologiya, milliy mentalitet, qiyosiy tahlil.

Аннотация. В данной статье рассматривается концепт благодарности, выраженный в узбекских и английских народных пословицах, на основе лингвокультурологического и концептуального анализа. Благодарность выступает как важная нравственно-духовная ценность, показатель социальных взаимоотношений и отражение национального менталитета. Народные пословицы являются ценным источником для изучения культурно-исторического опыта народа и его мировоззрения. В ходе исследования проводится сопоставительный семантический, прагматический и стилистический анализ пословиц, связанных с концептом благодарности. В узбекских пословицах благодарность чаще всего соотносится с терпением, довольством, принятием судьбы и благодарением Всевышнего, тогда как в английских пословицах она выражается через личную ответственность, социальную признательность и практическую философию жизни. В статье выявляются универсальные и национально-специфические особенности концепта благодарности, что способствует более глубокому пониманию культурных различий и сходств. Результаты исследования имеют значение для когнитивной лингвистики, паремологии и межкультурной коммуникации.

Ключевые слова: благодарность, концепт, народные пословицы, паремология, лингвокультурология, национальный менталитет, сопоставительный анализ.

Annotation. This article explores the concept of gratitude as reflected in Uzbek and English folk proverbs through a linguocultural and conceptual analysis. Gratitude is regarded as a fundamental moral and spiritual value, a key indicator of social behavior, and an essential component of national worldview and mentality. Folk proverbs, as concise expressions of collective wisdom, serve as an important linguistic source for revealing the cultural and philosophical essence of this concept.

The study provides a comparative semantic, pragmatic, and stylistic analysis of gratitude-related proverbs in both languages. In Uzbek proverbs, gratitude is predominantly associated with patience, contentment, acceptance of destiny, and divine appreciation, whereas in English proverbs it is more closely connected with personal responsibility, social appreciation, practical wisdom, and life satisfaction. The research identifies both universal and culture-specific features of the gratitude concept, highlighting similarities and differences in its verbalization across the two linguistic cultures. The findings contribute to the fields of cognitive linguistics, paremiology, and intercultural communication, offering valuable insights into the interaction between language, culture, and values.

Key words. *gratitude, concept, folk proverbs, paremiology, linguoculturology, national mentality, comparative analysis.*

Kirish. Zamonaviy tilshunoslikda inson tafakkuri va til o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik masalasi yetakchi ilmiy yo‘nalishlardan biri sifatida qaralmoqda. Ayniqsa, kognitiv tilshunoslik doirasida konsept tushunchasi til birliklarining ortida yotgan mental, madaniy va baholovchi tuzilmalarni ochib berishda muhim ilmiy kategoriya sifatida namoyon bo‘ladi. Konsept til orqali insonning borliqni idrok etishi, baholashi va tushunishini aks ettiruvchi kognitiv birlikdir.

E. C. Кубрякова konseptni inson ongida shakllanadigan va til birliklari orqali verbalizatsiya qilinadigan murakkab mental tuzilma sifatida talqin qiladi. Olimning fikriga ko‘ra, konseptlar insonning bilimlari, tajribasi va madaniy qarashlarini umumlashiruvchi mexanizm vazifasini bajaradi. Shu sababli konseptlarni o‘rganish nafaqat tilshunoslik, balki madaniyatshunoslik va kognitiv fanlar bilan ham uzviy bog‘liqdir. Ana shunday universal axloqiy konseptlardan biri — shukronalik konsepti bo‘lib, u insoniyat tarixida qadimdan mavjud bo‘lgan va barcha madaniyatlarda ijobiy baholovchi qadriyat sifatida qaralgan. Shukronalik insonning mavjud ne‘matlarga bo‘lgan minnatdorligi, qanoati va ichki ruhiy muvozanatini ifodalaydi. Ushbu konsept xalq og‘zaki ijodida, xususan, xalq maqollarida o‘zining eng barqaror va an‘naviy lisoniy ifodasini topgan. Xalq maqollari milliy tafakkur, tarixiy tajriba va madaniy qadriyatlarning ixcham, ammo chuqur mazmunli ifodasidir. Shu bois shukronalik konseptining o‘zbek va ingliz xalq maqollarida qiyosiy tahlili tillar va madaniyatlar o‘rtasidagi umumiylik va farqlarni aniqlash imkonini beradi.

Adabiyotlar tahlili. Zamonaviy tilshunoslikda konsept tushunchasi kognitiv lingvistikaning markaziy kategoriyalaridan biri sifatida e’tirof etiladi. Ushbu tushuncha inson ongida shakllangan bilim, tajriba va madaniy qadriyatlarning til orqali ifodalanishini o‘rganishga xizmat qiladi. Konseptlar til va madaniyat o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni ochib berishda muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. Rus tilshunosligida konsept nazariyasining shakllanishida Yu.S. Stepanov, V.I. Karasik, A. Vejbitskaya kabi olimlarning ilmiy ishlari alohida o‘rin egallaydi. Yu.S. Stepanov konseptni “madaniyatning aqliy yadrosi” sifatida talqin qilib, uning semantik, aksiologik va obrazli qatlamlardan iboratligini ta’kidlaydi. V.I. Karasik esa konseptni lingvomadaniy birlik sifatida izohlab, uning kommunikativ va pragmatik jihatlariga alohida e’tibor qaratadi.

G'arb tilshunosligida konseptual tahlil J. Lakoff va M. Johnsonning konseptual metafora nazariyasi asosida rivojlangan bo'lib, ular abstrakt tushunchalarning kundalik til va tafakkurda qanday ifodalanishini izohlab bergan. A. Wierzbicka esa madaniy konseptlarni semantik primitivlar orqali tahlil qilish metodini taklif etgan. Ushbu nazariy qarashlar shukronalik konseptining madaniyatlararo talqinini o'rganishda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Paremiologiya – xalq maqollarini o'rganishga bag'ishlangan soha sifatida shukronalik konseptini tadqiq etishda asosiy manbalardan biri hisoblanadi. O'zbek tilshunosligida xalq maqollarini o'rganish borasida G'. Salomov, T. Mirzayev, B. To'xliyev, Sh. Rahmatullayevlarning ilmiy ishlari muhim ahamiyatga ega. Ular maqollarning semantik tuzilishi, stilistik xususiyatlari hamda milliy mentalitetni aks ettirishdagi o'rnini yoritib berganlar. Ingliz paremiologiyasida esa W. Mieder, N. Barley, R. Honeck kabi tadqiqotchilar maqollarning kognitiv va pragmatik jihatlarini chuqur tahlil qilgan. Ularning ishlarida maqollar jamiyat axloqiy qadriyatlarini, jumladan, minnatdorlik va ijtimoiy mas'uliyat kabi tushunchalarni shakllantiruvchi vosita sifatida talqin etiladi. Shukronalik konsepti alohida tadqiqot obyekt sifatida asosan axloqshunoslik, psixologiya va madaniyatshunoslik fanlarida o'rganilgan bo'lsa-da, tilshunoslikda bu konseptning xalq maqollari asosida qiyosiy tahlili yetarlicha yoritilmagan. Ayniqsa, o'zbek va ingliz tillari materiallari asosida olib borilgan lingvokulturologik tadqiqotlar kamligi mazkur ishning dolzarbligini belgilaydi.

Metod. Kognitiv tilshunoslikda konsept inson ongida shakllangan, bilim va tajribani umumlashtiruvchi mental birlik sifatida izohlanadi. З. Д. Попова va И. А. Стернин konseptni uch asosiy komponentdan iborat tuzilma sifatida tavsiflaydi: obrazli, mazmuniy va baholovchi komponentlar. Aynan baholovchi komponent shukronalik konseptining markaziy yadrosini tashkil etadi, chunki shukronalik ijobiy axloqiy munosabatni ifodalaydi.

Mazkur tadqiqotda shukronalik konsepti lingvokognitiv va lingvomadaniy yondashuvlar asosida o'rganildi. Tadqiqot materiali sifatida o'zbek va ingliz xalq maqollari tanlab olinib, ularning leksik-semantik xususiyatlari, baholovchi komponentlari va madaniy konteksti tahlil qilindi. Qiyosiy metod orqali har ikki tildagi shukronalik konseptining umumiy va milliy jihatlari aniqlanadi. Tadqiqot materiali sifatida o'zbek va ingliz xalq maqollari tanlab olindi. Qiyosiy metod yordamida maqollardagi shukronalik konseptining:leksik birliklari (shukr, bor, ne'mat / gratitude, thankful, contentment),baholovchi komponenti (ijtimoiy yoki individual qoniqish),madaniy konteksti (diniy, jamoaviy yoki individual psixologik) tahlil qilindi.

Shuningdek, tadqiqotda kognitiv-semantik tahlil va lingvomadaniy yondashuvlar birlashtirildi, ya'ni konsept faqat leksik jihatdan emas, balki uning mental, ijtimoiy va

axloqiy qatlamlari ham o'rganildi. Shu usul orqali shukronalik konsepti til va madaniyat o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ochib beradi.

O'zbek xalq maqollarida shukronalik konsepti asosan diniy-axloqiy va jamoaviy tafakkur bilan uzviy bog'liq holda namoyon bo'ladi. "Boriga shukr qilmagan yo'g'iga yig'lar" – mavjud ne'matlarga minnatdor bo'lmaslik salbiy natijaga olib kelishini ta'kidlaydi. "Shukr qilgan to'yar" – shukronalik baraka va farovonlikni ta'minlovchi ijtimoiy-axloqiy tamoyil sifatida ko'rsatiladi. "Shukrli qul xor bo'lmas" – shukronalik konsepti individual hissiyotdan tashqari, ijtimoiy burch va diniy talab sifatida talqin qilinadi. kabi maqollarda shukronalik insonning hayotga bo'lgan munosabatini belgilovchi asosiy axloqiy mezon sifatida talqin qilinadi.

Mazkur maqollarda shukr, bor, ne'mat kabi leksik birliklar konseptning asosiy verbalizatorlari bo'lib xizmat qiladi. Bu birliklar ko'pincha diniy kontekst bilan bog'liq bo'lib, shukronalikni Alloh tomonidan berilgan ne'matlarga minnatdorlik sifatida talqin etadi. O'zbek xalq tafakkurida shukronalik nafaqat individual hissiyot, balki ijtimoiy va diniy burch sifatida qaraladi.

Shuningdek, shukronalik sabr va qanoat tushunchalari bilan chambarchas bog'langan. O'zbek maqollarida shukr qilish baraka, to'qlik va ijtimoiy barqarorlik manbai sifatida ko'rsatiladi. Bu holat o'zbek xalqining kollektiv tafakkuri va jamoaviy qadriyatlarini bilan bevosita bog'liqdir.

Ingliz xalq maqollarida shukronalik konsepti ko'proq individual va psixologik jihatdan ifodalanadi. "Gratitude is the memory of the heart" – shukronalik insonning ichki ruhiy holatini, xotira va hissiyotini uyg'unlashtiradi. "Be thankful for what you have" – mavjud ne'matlarga minnatdor bo'lish psixologik qoniqish va ijobiy ruhiy holatni shakllantirsa, "Contentment brings happiness" – qoniqish va ichki baxt shukronalik orqali erishiladigan individual farovonlik sifatida ko'rsatiladi. kabi maqollar shukronalikni insonning ichki ruhiy holati va hayotdan qoniqishi bilan bog'laydi. Bu maqollarda gratitude, thankful, contentment leksik birliklari konseptning asosiy verbalizatorlari hisoblanadi. Ingliz xalq tafakkurida shukronalik diniy majburiyatdan ko'ra, shaxsiy farovonlik va psixologik muvozanatni ta'minlovchi omil sifatida namoyon bo'ladi. Shukronalik bu yerda insonning ichki baxti va hayotdan rozi bo'lish holatini ifodalaydi. Ingliz maqollarida individualizm yetakchi o'rinni egallab, shukronalik shaxsning o'z hayotiga nisbatan ongli va ijobiy munosabatini shakllantiruvchi vosita sifatida talqin qilinadi.

Natijalar. Qiyosiy tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, shukronalik konsepti har ikki tilda ham universal axloqiy qadriyat sifatida namoyon bo'ladi. Biroq uning semantik urg'ulari va lisoniy ifodalanishi milliy madaniyatga bog'liq holda farqlanadi. O'zbek maqollarida shukronalik jamoaviylik, diniy e'tiqod va ijtimoiy baraka bilan bog'langan bo'lsa, ingliz maqollarida individual qoniqish va psixologik muvozanat yetakchi o'rinni

egallaydi. Shunday qilib, konseptning yadrosi umumiy bo'lsa-da, uning periferiyasi milliy mentalitet asosida shakllanadi. Xususan qo'shimcha ma'lumot sifatida shuni ayta olamanki, o'zbek maqollarida konsept ijtimoiy mas'uliyat va baraka bilan ifodalansa, ingliz maqollarida esa psixologik qoniqish va shaxsiy baxt bilan ifodalanadi. Shukronalik konsepti har ikki tilda inson ongida pozitiv baholovchi mental tuzilma sifatida shakllangan, lekin uning periferik qatlamlari milliy madaniyatga mos ravishda farqlanadi. Tahliliy tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, xalq maqollari konseptning madaniy, lingvistik va kognitiv shakllanishida asosiy manba bo'lib xizmat qiladi. Mazkur tadqiqot natijasida o'zbek va ingliz xalq maqollarida shukronalik konseptining ifodalanish mexanizmlari aniqlanib, ularning semantik va madaniy xususiyatlari ochib berildi. Tahlil jarayonida shukronalik konsepti ikki tilda ham umuminsoniy axloqiy qadriyat sifatida namoyon bo'lishi aniqlangan bo'lsa-da, uning verbalizatsiya shakllarida sezilarli milliy farqlar mavjudligi kuzatildi. O'zbek xalq maqollarida shukronalik asosan qanoat, sabr, taqdirga rozilik va ilohiy minnatdorlik tushunchalari bilan uzviy bog'liq holda ifodalanadi. Bunday maqollarda shukronalik insonning ichki ruhiy holati va axloqiy pokligi bilan bevosita aloqador sifatida talqin qilinadi. Bu holat o'zbek xalqining an'anaviy dunyoqarashi va diniy-axloqiy qadriyatlari bilan chambarchas bog'liq ekanligini ko'rsatadi. Ingliz xalq maqollarida esa shukronalik konsepti ko'proq ijtimoiy munosabatlar, mehnat natijasini qadrlash, shaxsiy mas'uliyat va amaliy hayot falsafasi doirasida ifodalanadi. Minnatdorlik insonning jamiyatdagi o'rni, boshqalarning mehnatini tan olish va ijtimoiy muvozanatni saqlash vositasi sifatida namoyon bo'ladi. Bu esa ingliz madaniyatida pragmatik fikrlash va individualizm unsurlarining ustuvorligini ko'rsatadi. Qiyosiy tahlil natijasida har ikkala tilda shukronalik konsepti metaforik ifodalar, qarama-qarshilik (antiteza) va umumlashtiruvchi obrazlar orqali verbalizatsiya qilinishi aniqlandi. Shu bilan birga, o'zbek maqollarida emotsional-ekspressivlik kuchliroq bo'lsa, ingliz maqollarida lakonik va mantiqiy tuzilish ustunlik qiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, shukronalik konsepti o'zbek va ingliz tillarida universal mazmunga ega bo'lishi bilan birga, har bir xalqning tarixiy tajribasi, mentaliteti va madaniy qadriyatlari ta'sirida o'ziga xos milliy shakllarda namoyon bo'ladi. Ushbu xulosalar madaniyatlararo muloqot jarayonida til birliklarini to'g'ri talqin qilishda muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

Xulosa. shukronalik konsepti o'zbek va ingliz xalq maqollarida universal axloqiy qadriyat sifatida mustahkamlangan. Biroq uning lisoniy ifodasi, baholovchi komponentlari va madaniy talqini har bir xalqning dunyoqarashi va ijtimoiy qadriyatlariga mos ravishda shakllangan. Mazkur tadqiqot natijalari shukronalik konseptini lingvokognitiv va lingvomadaniy yondashuvlar asosida o'rganish tilshunoslik fanida muhim ilmiy ahamiyatga ega ekanini ko'rsatadi. Kelgusida ushbu konseptni boshqa diskurs turlarida va boshqa tillar misolida o'rganish istiqbolli yo'nalishlardan biri hisoblanadi. O'zbek maqollarida shukronalik diniy va jamoaviy qadriyatlar bilan bog'liq bo'lib, ijtimoiy

barqarorlik va ma'naviy kamolotni ta'minlaydi. Ingliz maqollarida esa shukronalik individual psixologik farovonlik va qoniqish bilan bog'liq bo'lib, shaxsiy baxtni ta'minlash vositasi sifatida qaraladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Кубрякова Е.С. Язык и знание. — Москва: Языки славянской культуры, 2004.
2. Попова З.Д., Стернин И.А. Когнитивная лингвистика. — Москва, 2007.
3. Wierzbicka A. Understanding Cultures through Their Key Words. — Oxford, 1997.
4. Lakoff G., Johnson M. Metaphors We Live By. — Chicago, 1980.
5. O'zbek xalq maqollari. — Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot.
6. The Oxford Dictionary of Proverbs. — Oxford University Press.
7. Evans V., Green M. Cognitive Linguistics: An Introduction. — Edinburgh: Edinburgh University Press, 2006.
8. Langacker R. Cognitive Grammar: A Basic Introduction. — Oxford: Oxford University Press, 2008.
9. Маслова В. А. Лингвокультурология. — Москва: Академия, 2001. — 208 с.
10. Карасик В. И. Языковой круг: Личность, концепты, дискурс. — Волгоград: Перемена, 2002. — 256 с.

